O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SARIOSIYO TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Sariosiyo tumani, A.Qahhor ko‘chasi 1-uy, 191001, tel.: 76-48-7-64-62, faks: 76-48-7-66-66, sariosiyo.t@exat.uz

2023 - yil 24 - iyun 176-8-116-Q/23 Sariosiyo tuman hokimligi

Surxondaryo viloyati hokimining 2023-yil 13-iyundagi “2023-yil hosilidan bug‘doy xarid qilish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 333-8-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-noyabrdagi “G‘alla yetishtirish va sotishda erkin raqobatni ta’minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-10-sonli qaroriga muvofiq, shuningdek, g‘alla bozorini erkinlashtirish bo‘yicha islohotlarni davom ettirish, ichki bozorni bug‘doy va un mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash hamda ularning narxlari barqarorligini saqlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyundagi “2023-yil hosilidan bug‘doy xarid qilish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-227-sonli hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2023-yil 13-iyundagi “2023-yil hosilidan bug‘doy xarid qilish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 333-8-0-Q/23-sonli Qarorlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu qaror bilan:

Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan davlat resursi sifatida xarid qilinadigan Tovar bug‘doyni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-maydagi “G‘allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-262-son qarorida belgilangan tartibda birja savdolari orqali sotish belgilab qo‘yilganligi;

Jamg‘arma va O‘zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi bilan

birgalikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tomonidan bug‘doy yetishtiruvchilar kesimida tasdiqlangan vaqtincha saqlash uchun qabul qilinadigan bug‘doyni birja savdolariga qo‘yish bo‘yicha oylik grafiklarni umumlashtirgan holda tasdiqlash hamda kelgusi oylarning 28-sanasiga qadar O‘zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasining rasmiy veb-saytiga joylashtirib borish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda tadbirkorlik subyektlarining, birinchi navbatda, qolipli non ishlab chiqaruvchi va un mahsulotlarining chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarning mahalliy un mahsuloti bo‘yicha o‘tkaziladigan birja savdolarida ishtirok etishiga ko‘maklashishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi 2023-yilda sug‘oriladigan maydonlarning har gektaridan o‘rtacha 2.8 tonnadan, jami 7110 ming tonna bug‘doyni, jumladan:

6090 ming tonna tovar bug‘doyni davlat resursi sifatida hamda 1020 ming tonna urug‘lik bug‘doyni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinda – Jamg‘arma) mablag‘lari hisobidan xarid qilish;

2937 ming tonna tovar bug‘doyni fermer xo‘jaliklari hamda boshqa bug‘doy yetishtiruvchilar (keyingi o‘rinlarda – bug‘doy yetishtiruvchilar) tomonidan keyinchalik birja savdolari orqali sotish uchun Jamg‘armaning tijorat vakilida vaqtincha saqlashga qabul qilish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

4. Quyidagilar:

2023-yil hosilidan sug‘oriladigan maydonlarning har gektaridan o‘rtacha 2,8 tonnadan, jami 7110 ming tonna bug‘doyni qabul qilish dislokatsiyasi **1-ilovaga**;

“Sho‘rchidonmahsulotlari” AJ tomonidan qabul qilinadigan boshoqli don ekini urug‘larining nav-avlodi va miqdori **2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin**.

Tuman hokimligi tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi bilan birgalikda davlat resursi sifatida xarid qilinadigan va vaqtincha saqlash uchun qabul qilinadigan hamda urug‘lik bug‘doy hajmlarini bug‘doy yetishtiruvchilar kesimidagi ro‘yxatini tasdiqlasin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining

o‘rinbosari N.Karimov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.H.Donayev**

Sariosiyo tuman hokimining
2023-yil 24-iyundagi
176-8-116-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**2023-yil hosilidan sug‘oriladigan maydonlarning har gektaridan o‘rtacha 2.8 tonnadan,
jami 7110 ming tonna bug‘doyni qabul qilish
DISLOKATSIYASI**

№	Tuman nomi	Jami qabul qilinadigan bug‘doy	Davlatga urug‘lik don sotish rejasi, tn	Urug‘lik don jamg‘aradigan korxonalar, tonna							
				"Surxondaryo-donmahsulot-lari" AJ	"Sho‘rchi-donmahsulot-lari" AJ	"Jarqo‘rg‘on Best Seeds" MChJ	Denov EUX MChJ	Denov Minora Agro EUX MChJ	Qumqo‘rg‘on EUX MChJ	Termiz EUX MChJ	Terimz Do‘stlik EUX MChJ
1	Sariosiyo tumani	7110	1020		1020						

Sariosiyo tuman hokimining
2023-yil 24-iyundagi
176-8-116-Q/23-son qaroriga
2-ilova

"Sho‘rchidonmahsulotlari" AJ tomonidan qabul qilinadigan boshoqli don ekini urug‘larining nav-avlodi va miqdori

№	Tuman nomi	Urug‘lik yetishtiruvchi subyekt nomi	Navi	Avlodi	Miqdori, tonna
1	Sariosiyo	Zarif Polvon Davr	Antonina	ЭУ	28
2		Imkon	Antonina	ЭУ	43
3		Shoximardon Madadkor	Alekseich	R-1	30
4		Qulpista	Alekseich	R-1	30
5		Jalilov Erniyoz	Alekseich	R-1	30
6		Toqchiyon Paxta	Alekseich	R-1	34
7		Orzu Daminzoda	Alekseich	R-1	30
8		Qoraboy Tilak	Alekseich	R-1	30
9		Oybek Oxun	Alekseich	R-1	21
10		Oxista Ganizoda	Alekseich	R-1	30
11		Solanus Freesh Food	Antonina	R-1	319
		Solanus Freesh Food	Vassa	R-1	319
12		Xayrullo Oltin dalasi	Alekseich	R-1	43
13		Samar Agro dalasi	Alekseich	R-1	33
		Tuman bo‘yicha jami:			**1020**